

UDK: 31:339.5(575.1)

**О‘ЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASINING TOVARLAR TASHQI
SAVDOSI STATISTIK TAHLILI***Yuldasheva Nihola Tohir qizi**Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar instituti**tayanch doktoranti (PhD)**nihola.yuldasheva98@gmail.com*

Аннотасија: Ushbu maqolada tashqi savdo tushunchasiga xorijiy iqtisodchi olimlar nazariyalariga tayanib, iqtisodiy ta’rif berilib, uning tarkibida tovarlar eksportining ahamiyati keng yoritib berilgan. O‘zbekiston Respublikasining 2010-2021 yillarda tovarlar eksportini keng qamrovli iqtisodiy toifalarga ajratib, ular bo‘yicha alohida toifalar statistik tahlil qilingan hamda keng qamrovli iqtisodiy toifalarga ajratilgan eksport tovarlari hisobini yuritilishi bo‘yicha xorijiy davlatlar tajribasi o‘rganilgan. Tovarlarni eksportini rivojlanishi uchun ta'sir qiluvchi omillar statistik baholani, yaratilayotgan me'yoriy-huquqiy sharoitlar ko‘rsatib berilgan. Tovar eksportini toifalar bo‘yicha turlarga ajratish jaxon standartlari talabi asosida amalga oshirilib, ushbu turlarga ajratilgan tovarlarni tahlil qilinayotgan yillar davomida o‘shirish dinamikasi va toifalar bo‘yicha tarkibiy o‘zgarishlari qiyosiy tahlil qilinib, erishilgan tahlil natijalarining iqtisodiyot tarmoqlari rivojlanishiga ta'siri ko‘rsatib berilgan.

Калит со‘злар: Tashqi savdo statistikasi, tovarlar eksporti, tovarlar importi, sanoat, statistik tahlil, keng qamrovli iqtisodiy toifalar, asosiy vositalar, Milliy hisoblar tizimi, rasmiy statistika, Xalqaro valyuta fondi, to‘lov balansi, xalqaro investisiya pozitsiyalari, statistik mahfiylik, Tashqi savdo dinamikasi, tovarlar statistik nomenklaturasi, oziq-ovqat mahsulotlari, ishlab chiqarish uchun birlamchi mahsulotlar, yoqilg‘i-moylash mahsulotlari, asosiy vositalar, butlovchi qismlar, moslamalar.

Аннотация: В данной статье понятию внешней торговли дается экономическое определение, основанное на теориях зарубежных экономистов, и широко разъясняется значение экспорта товаров в ее структуре. В 2010-2021 годах экспорт товаров Республики Узбекистан был разделен на широкие экономические категории, проведен статистический анализ отдельных категорий, изучен опыт зарубежных стран. Статистически оценены факторы, влияющие на развитие экспорта товаров, показаны нормативно-правовые условия. Классификация экспорта товаров по категориям осуществляется на основе требований международных стандартов, сравнивается динамика роста и структурных изменений категорий товаров, разделенных на эти виды, за анализируемые годы, а также влияние проведенного анализа. результаты по развитию отраслей экономики.

Ключевые слова: Статистика внешней торговли, экспорт товаров, импорт товаров, промышленность, статистический анализ, комплексные экономические категории, основные средства, Система национальных счетов, официальная статистика, Международный валютный фонд, платежный баланс, международные инвестиционные позиции, статистическая конфиденциальность, динамика внешней торговли, статистическая номенклатура товаров, продуктов питания, сырья для производства, горюче-смазочных материалов, основных инструментов, комплектующих, приспособлений.

Abstract: In this article, the concept of foreign trade is given an economic definition based on the theories of foreign economists, and the importance of exporting goods in its structure is widely explained. In 2010-2021, the export of goods of the Republic of Uzbekistan was divided into broad economic categories, a statistical analysis of individual categories was carried out, and the experience of foreign countries was studied. The factors influencing the development of exports of goods are statistically assessed, and the regulatory and legal conditions are shown. The classification of exports of goods into categories is carried out on the basis of the requirements of international standards, the dynamics of growth and structural changes in categories of goods divided into these types is compared for the analyzed years, as well as the impact of the analysis. results on the development of economic sectors.

Keywords: Foreign trade statistics, export of goods, import of goods, industry, statistical analysis, complex economic categories, fixed assets, System of National Accounts, official statistics, International Monetary Fund, balance of payments, international investment positions, statistical confidentiality, dynamics of foreign trade, statistical nomenclature of goods, foodstuffs, raw materials for production, fuels and lubricants, basic tools, components, fixtures.

KIRISH

Jaxonda xalqaro integratsiyalashuvning jadallashuvi natijasida tashqi savdo ma'lumotlariga bo'lgan talabning ortishi mamlakatlar o'rtasida axborot almashinuviga yagona standartlar joriy qilinishiga sabab bo'ladi. Bu orqali statistika tizimini xalqaro darajada rivojlanishi, mamlakatlar o'rtasida shaffof va tezkor statistik ma'lumotlarni erkin almashinuviga va foydalanuvchilarga keng imkoniyatlar yaratilishiga erishilmoqda. Yana bir e'tiborli jihati, Prezidentimizning quyidagi fikrlari statistika tizimini rivojlantirish dolzarb ekanligini ko'rsatib beradi: "Endi har bir topshiriqning ijro etilgani qog'ozga qarab emas, erishilgan pirovard natijaga qarab baholanadi...Shu bois, barcha darajadagi ijro organlarida intizomni kuchaytirish, belgilangan vazifa va topshiriqlar natijadorligini tanqidiy tahlil qilishning ta'sirchan mexanizmlarini joriy etish zarur...Ijro hokimiyati idoralari qabul qilingan qarorlarning bajarilishi yuzasidan

ijtimoiy so'rovlar o'tkazish orqali va boshqa shakllarda keng jamoatchilik fikrini muntazam ravishda o'rganib borishi kerak"[1].

O'zbekistonda statistika tizimini rivojlantirishga juda katta berilayotgan e'tibor natijasida sohaning rivojlanishi yillar davomida sezilarli darajada o'zgarishlar bilan o'z isbotini topib kelmoqda. Jahon bankining O'zbekistondagi vakolatxonasi rahbari Marko Mantovanelli Jahon banki tomonidan moliyalashtiriladigan loyiha Davstatqo'mning muhim statistik ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va tarqatish yo'nalishidagi inson va texnologik salohiyatlarini rivojlantirishni jadallashtirishi kutilmoqda. Tegishli statistik ma'lumotlarning mavjudligi fuqarolar va biznes vakillari uchun turli xil davlat xizmatlarini ko'rsatish samaradorligini oshiradi, xususiyl sektor o'sishiga hissa qo'shadi hamda O'zbekistonga ko'proq xorijiy investisiyalarni jalb qilishga ko'maklashadi. Jahon bankining texnik ko'magi bilan Davlat statistika qo'mitasi 2020–2025 yillarga mo'ljallangan statistikaning rivojlantirishning Milliy strategiyasini ishlab chiqqanligini e'tirof etdi[2]. Ushbu strategiyada statistika tizimini rivojlantirish bilan bir qatorda uning tarkibiy qismi bo'lgan tashqi savdo statistikasini ham rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan. Tashqi savdo statistikasi Davlat statistika qo'mitasining tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi boshqarmasi tomonidan tuzilishi va metodologik tavsiyalar asosiy manbasi Xalqaro valyuta fondining to'lov balansi va xalqaro investisiya pozitsiyalari bo'yicha ko'rsatmalari (TBQ-6) va BMT, Xalqaro Valyuta Jamg'armasi, Jahon savdo tashkiloti, Yevrostat va boshqalar tomonidan tayyorlangan xalqaro savdo xizmatlari statistikasining 2010 yildagi ko'rsatmalari[3] ekanligi qayd etilgan.

Yuqoridagilardan, mamlakatimizda statistika tizimini rivojlantirish uchun xalqaro darajada ham e'tibor qaratilayotganligini ko'rishimiz mumkin. Shu bilan birga, ushbu strategiyani amalga oshirish uchun yo'l xaritasini tuzib chiqish va qo'yilgan vazifalarni qat'iy bajarish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining Milliy statistika tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4796-sonli qarori qabul qilindi. Unda[4] statistika organlarini talab yuqori bo'lgan, sifatli va ishonchli ma'lumotlarni shakllantirishga, statistika ma'lumotlarining shaffofligi va oshkoraligini oshirishga qaratilgan professional mustaqil xizmatga aylantirish, statistika sohasida yagona siyosatni amalga oshirishga qaratilgan vakolat va majburiyatlarni mustahkamlash orqali O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi huzuridagi Statistika kengashining to'liq faoliyat ko'rsatishini ta'minlash, ilg'or axborot-kommunikatsiya texnologiya vositalaridan keng foydalangan holda statistika axborotlarini yig'ish, qayta ishlash, tahlil qilish, nashr etish va saqlash bo'yicha yaxlit tizimni tashkil etish ustuvor yo'nalish sifatida belgilab berilganligini ko'rishimiz mumkin bo'ladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Jaxon iqtisodchi olimlari tomonidan mamlakat eksport salohiyatini o'sishi mamlakatlar va mintaqalar rivojlanishi bilan bog'laydilar.

Tarixiy rivojlanish jarayonlari mobaynida tashqi iqtisodiy faoliyatning iqtisodiy o'sish va rivojlanishga ta'siri merkantilistik g'oyalarga, A. Smitning mutlaq afzallik nazariyasiga, D. Rikardo, T. Xeksher-Olin-Samuelson[5]ning nisbiy afzalliklariga, eksport bazasi nazariyalari bugungi kunda ham bog'liq ekanligini ko'rishimiz mumkin.

“Xalqaro savdo - bu dunyoning barcha mamlakatlarining tashqi savdosidan hosil bo'lgan xalqaro tovar-pul munosabatlari tizimi. Xalqaro savdo XVI-XVIII asrlarda jahon bozori paydo bo'lishi davrida vujudga keldi. Uning rivojlanishi zamonaviy davrda jahon iqtisodiyoti rivojlanishining muhim omillaridan biridir”[6]

Iqtisodchi olimlar homashyo va tayyor mahsulotlar eksporti bo'yicha turli ilmiy tadqiqotlar o'tkazganlar. Ular orasida Obolenskiy V.P. Rossiya misolida birlamchi bo'lmagan eksportini ko'paytirish imkoniyati muhokama qilib, sanoatning ishlab chiqarish sohasida asosiy vositalarni zamonaviylariga almashtirish orqali ularning intensivligiga e'tibor bergan, ularning asosiy qismi eskirgan asbob-uskunalaridan foydalanishi natijasida raqobatbardoshligi past ekanligini va bu eksportni ko'paytirish jarayonini sezilarli darajada sekinlashtirishini aytib o'tgan[7].

Rossiyalik iqtisodchi olimlar dan A.A. Novikova[8] ilmiy izlanishlarida tovar oqimlarini milliy hisoblar tizimining keng iqtisodiy toifalari va sinflari bo'yicha guruhlashni submilliy darajada qo'llash imkoniyatlarini iste'mol tovarlari, oraliq (xom ashyo, qayta ishlangan, shuningdek ehtiyot qismlar va aksessuarlar) va milliy amaliyotda cheklangan, xalqaro miqyosda faol foydalaniladigan investisiya tovarlari (ishlab chiqarish vositalari)ni ko'rib chiqqan va keng iqtisodiy toifalar bo'yicha eksport tovar munosabatlarining tuzilishi va geografiyasiga asoslanib, mintaqalarning eksport salohiyatini oshkor qilishning to'liqligini, ularning jahon iqtisodiy aloqalarida ishtirok etish darajasi va xususiyatini baholashga va eksport oqimlarini qo'shilgan qiymat bo'yicha farqlashga yaqinlashishga imkon beradigan baholarni oldi.

Yevropa ittifoqi bo'yicha tashqi sado statistikasi- YeI mamlakatlari va undan tashqaridagi mamlakatlar bilan tovarlar eksporti hajmi va qiymati to'g'risidagi ma'lumotlar bilan ta'minlaydi [9].

KQIT [10] tasnifida:

(a) komissiya tomonidan o'n uchinchi sessiyada aniqlangan beshta toifalar mavjud: oziq-ovqat mahsulotlari, sanoat uchun xom ashyo, kapital uskunalari, uzoq va qisqa muddatli iste'mol tovarlari;

(b) 1966 yilda statistika komissiyasining o'n to'rtinchi sessiyasida ushbu masalani muhokama qilish natijalariga ko'ra "yoqilg'i-moylash materiallari" va "transport uskunalari"ning alohida toifalari ajratilgan va ushbu toifalar tarkibiga "tomor benzini" va "engil avtomobillar" ning maxsus toifalari kiritilgan;

c) haqiqiy uskunalar va ehtiyot qismlar va aksessuarlar o'rtasida kapital uskunalalar bilan bog'liq toifalar bo'yicha farqlanadi;

(d) "oziq-ovqat va ichimliklar", "boshqa toifalarga kiritilmagan sanoat xomashyolari" va "xomashyo" va "qayta ishlangan" tovarlar o'rtasida "yoqilg'i-moylash materiallari" toifalarida farqlanadi;

(e) sanoat va shaxsiy iste'mol uchun mo'ljallangan tovarlar o'rtasida "xom oziq-ovqat va ichimliklar", "qayta ishlangan oziq-ovqat va ichimliklar" va "transport uskunalari (engil avtomobillar va ehtiyot qismlar va aksessuarlardan tashqari)" toifalarida farqlanadi.


Tadqiqot metodologiyasi.

Tashqi savdo dinamikasini statistik tahlil qilishda turli toifalar bo'yicha qiyosiy tahlillar olib borildi. Tashqi savdoni "eksport va import" bo'yicha va "tovarlar va xizmatlar" bo'yicha turkumlarga ajratish bilan birga ularni mamlakatlar kesimida, davrlar bo'yicha (oylik, choraklik, yarim yillik va yillik), mamlakat hududlari kesimida (tuman, viloyat va jami respublika bo'yicha) turkumlarga ajratish bilan bir qatorda ularni xalqaro qabul qilingan talablar asosida KQIT (keng qamrovli iqtisodiy toifalari) bo'yicha ham ajratib statistik tahlil o'zining ijobiy natijalarini berdi.

Tahlil va natijalar.

Ma'lumki, tashqi savdo tovarlar tashqi savdosi va xizmatlar tashqi savdosidan tashkil topgan. Ularni tovarlar eksporti, xizmatlar eksporti, tovarlar importi va xizmatlar importi kabi turlarga ham ajratish mumkin bo'ladi.

O'zbekistonda 2016 yilgacha eksport hajmi import hajmidan ko'proq bo'lgan ya'ni tashqi savdoda profisit kuzatilgan. 2017 yilda xorijiy valyuta konvertasiyasining erkinlashirilishi natijasida 2017 yildan boshlab import hajmi tez sur'atlarda oshib borganini ko'rishimiz mumkin (1-rasm)¹.



1- rasm. 2000-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasida tovar va xizmatlar eksporti va importi, ming AQSh dollarida.

¹ O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif hisob kitoblari

Pandemiya oqibatida, tashqi savdo tarkibida eksport va import ko'rsatkichlari pasayib, 2020 yil yakunlariga kelib, o'sishda yana davaom eta boshladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28 dekabr 2017 yildagi 3448-sonli "O'zbekiston Respublikasining Tashqi iqtisodiy faoliyatini tartibga solishga doir chora-tadbirlarni davom ettirish to'g'risida"[11]gi Prezident Qaroriga mos ravishda tovarlarni kodlash va tasniflash uchun, tovarlarni ta'riflash va kodlashning yangilangan uyg'un sistemasi asosida ishlab chiqilgan va 2018 yildan kuchga kirgan "O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi" (O'zR TIF TN 2017 yil versiyasi)dan foydalaniladi.

Hozirgi kunda xalqaro darajada ma'lumotlarni iste'molga tayyorlash uchun joriy qilingan yagona qo'llanmalar "standartlar" takomillashtirilib borilmoqda. Shular qatoriga tovarlar tashqi savdosida ularni keng qamrovli iqtisodiy toifalari (KQIT)ga ko'ra tasniflashni kiritishimiz mumkin bo'ladi. KQIT o'zi nima va u nima uchun kerak?

Keng qamrovli iqtisodiy toifalar "KQIT" (Broad Economic Categories "BEC")- bu tashilgan tovarlarni asosiy yakuniy manziliga qarab guruhlaydigan uch xonali tasnif. U ko'pincha tovarlarning xalqaro savdosi to'g'risidagi ma'lumotlarni umumiy iqtisodiy tahlil qilish uchun ishlatiladi. BEC tizimi xalqaro savdo standarti tasniflash tizimi nuqtai nazaridan aniqlanadi.

Keng qamrovli iqtisodiy toifalar "KQIT" (Broad Economic Categories "BEC") birinchi marta 1965 yilda taklif qilingan va 1971 yilda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Statistika Komissiyasi tomonidan qabul qilingan. Asl KQIT 1971 yilda nashr yetilgan va 1976, 1986 va yaqinda 1988 yilda qayta ko'rib chiqilgan. KQIT ning yuqori darajadagi toifalari quyidagicha:

BEC -1: Oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar;

BEC - 2: Birlamchi toifalarga kiritilmagan ishlab chiqarish uchun birlamchi mahsulotlar;

BEC-3: yoqilg'i-moylash mahsulotlari;

BEC-4: Asosiy vositalar (transport vositalaridan tashqari) va ulur uchun butlovchi qismlar va moslamalar;

BEC-5: Transport vositalari va ularga ehtiyot qismlar;

BEC -6: Boshqa toifaga kirmaydigan iste'mol tovarlari;

BEC - 7: Boshqa toifaga kiritilmagan tovarlar;

KQIT-8 Xizmatlar.

Mamlakatimizda O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan qo'llanma[12]ga asosan Keng qamrovli iqtisodiy toifalar bo'yicha tovarlarning statistik nomenklaturasi (bundan buyon matnda – Nomenklatura) tovarlar xalqaro savdosining keng iqtisodiy sinflar bo'yicha yig'ma ma'lumotlarni shakllantirish uchun mo'ljallangan.

Nomenklaturada eksport va import bo'yicha jamlangan ma'lumotlar, Milliy hisoblar tizimidagi (MHT) yakuniy foydalaniladigan tovarlar toifalariga o'tkaziladi, ya'ni tegishli uch toifadagi tovarlar guruhi – ishlab chiqarish uchun, oraliq iste'mol tovarlari va iste'mol tovarlarga asosan qo'llaniladi. Ushbu nomenklatura faqat tashqi savdo statistikasida eksport-import uchun yetkazilgan xom ashyo va qayta ishlangan tovarlarni aniqlash uchun ishlatiladi.

Ushbu maqolada asosiy iqtisodiy atama sifatida tovarlar eksportiga – O'zbekiston Respublikasi bojxona hududidan tovarlarni qayta olib kirish majburiyatisiz olib chiqish, agar qonun hujjatlarida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa degan tarif me'yoriy-huquqiy hujjatlar[13]da deb ta'rif berilgan. Unga ko'ra tovarlar statistik qiymati SIF, SIP, FOB va DAF kabi iqtisodiy atamalar yordamida aniqlanadi.

SIF (xarajat, sug'urta, yuk) – eksport qilinayotgan tovarning sotish narxiga uning narxini va sug'urtalash, shuningdek, tovarni import sifatida sotib oluvchi davlat portigacha bo'lgan jami xarajatlarni hisobga olib shakllantirilgan narx asosida tovarlarni sotish;

SIP (kemada tashish/tashish va sug'urta) – eksport qilinayotgan tovarlarning sotuv narxiga, uning narxini va sug'urta xarajati, shuningdek, tovarlarni import sifatida sotib oluvchi davlat bojxona chegarasida belgilangan manziliga yetkazib berish xarajatlarini hisobga olgan holda tovarlarni sotish;

FOB (kemada bepul) – eksport qilinayotgan tovarlarning sotuv narxiga, uning narxini va tovarni kema bortiga yetkazib berish va yuklash xarajatlarini hisobga olish asosida tovarlarni sotish;

DAF (chegaraga yetkazib berish) - eksport qilinayotgan tovarlarning sotilish narxiga, uning narxini va tovarni eksport qiluvchi mamlakat chegarasida belgilangan manziliga yoki qo'shni mamlakat chegarasiga yetkazib berish xarajatlarini qo'shish sharti asosida tovarlarni sotish.

Boshqa bir huquqiy manba[14]ga asosan “tovarlar eksporti — agar qonunchilikda o'zgacha hol nazarda tutilmagan bo'lsa, tovarlarni ularni qaytarib olib kirish majburiyatisiz O'zbekiston Respublikasining bojxona hududidan olib chiqish” deb tarif berilgan.

Shu bilan birga, mamlakatimizda tovarlar eksportini statistik hisobini yuritilishida qo'shimcha me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilingan bo'lib, ular umumiy tartibdagi barcha tovarlarni qamrab olmagan ayrim turdagi tovarlarni hisobini yuritilishini tartibga soladi. Bunga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 3 noyabrdagi PF-5215-sonli “Maxsus turdagi tovarlar eksporti va importini lisenziyalash, shuningdek, eksport kontraktlarini ro'yxatga olish va import kontraktlarini ekspertizadan o'tkazishni tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida”[15]gi qarori bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining hujjatlari yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari asosida beriladigan lisenziyalar bo'yicha eksport-

import qilinadigan maxsus tovarlar sifatida qurol-yarog‘ va harbiy texnika, ularni ishlab chiqarish uchun maxsus butlovchi buyumlar, uran va boshqa radioaktiv moddalar, ulardan tayyorlangan buyumlar radioaktiv moddalarining chiqindilari, radioaktiv moddalardan foydalanilgan priborlar va asbob-uskunalar hamda qimmatbaho metallar va ulardan tayyorlangan boshqa buyumlar kiritiladi.

“Rasmiy statistika to‘g‘risida”[16]gi qonunda rasmiy statistikaning mustaqillik, tushunarlik va shaffoflik, aniqlik va ishonchlik, beg‘arazlik va xolislik, statistik maxfiylik va dolzarblik prinsiplari ko‘rsatib o‘tilgan. Shu bilan birga, “Respublika hududlari va xorijiy mamlakatlar biznes vakillari o‘rtasida tashqi iqtisodiy aloqalarni o‘rnatish, tashqi savdo yo‘nalishlarini diversifikatsiya qilish orqali eksport hajmlari va geografiyasini kengaytirish, eksport salohiyatini kelgusi 3 yilda yana 1 mlrd. AQSh dollariga oshirish choralari ko‘rish,” [17] hukumat darajidagi dolzarb masala sifatida e‘tirof etildi va buni amalga oshirish choralari ko‘rilmoqda.

Mamlakatimizda O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo‘mitasi tomonidan ishlab chiqilgan qo‘llanma[18] ga asosan Keng qamrovli iqtisodiy toifalar bo‘yicha tovarlarning statistik nomenklaturasi (bundan buyon matnda – Nomenklatura) tovarlar xalqaro savdosining keng iqtisodiy sinflar bo‘yicha yig‘ma ma'lumotlarni shakllantirish uchun mo‘ljallangan. Nomenklaturada eksport va import bo‘yicha jamlangan ma'lumotlar, Milliy hisoblar tizimidagi (MHT) yakuniy foydalaniladigan tovarlar toifalariga o‘tkaziladi, ya'ni tegishli uch toifadagi tovarlar guruhi –ishlab chiqarish uchun, oraliq iste'mol tovarlari va iste'mol tovarlarga asosan qo‘llaniladi. Ushbu nomenklatura faqat tashqi savdo statistikasida eksport-import uchun yetkazilgan xom ashyo va qayta ishlangan tovarlarni aniqlash uchun ishlatiladi. Ushbu nomenklaturada keltirilgan tashqi savdo turkumlari bo‘yicha tarmoqlar va hududlar kesimida yillar mobaynida tashqi savdoni samaradorligini statistik tahlil qilish uchun quyidagi formulani taklif qildik:

- 1) Oziq-ovqat mahsuloti va ichimliklar importi samaradorligi ko‘rsatkichi:

$$OOS = OOXMimp / OOQIeksp$$

bunda, OOS - Oziq-ovqat mahsuloti va ichimlik importi samaradorligi ko‘rsatkichi;

OOXMimp - Oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklari homashyosi importi;

OOQIeksp - Qayta ishlangan oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklari eksporti;

- 2) Birlamchi toifalarga kiritilmagan ishlab chiqarish uchun birlamchi mahsulotlar importi samaradorligi ko‘rsatkichi:

$$BTICHs = BTICHXMimp / BTICHQIeksp$$

bunda, BTICHs - Birlamchi toifalarga kiritilmagan ishlab chiqarish uchun birlamchi mahsulotlar importi samaradorligi ko‘rsatkichi;

BTIChXMimp - Birlamchi toifalarga kiritilmagan ishlab chiqarish uchun birlamchi mahsulotlar homashyosi importi;

BTIChQIeksp - Qayta ishlangan birlamchi toifalarga kiritilmagan ishlab chiqarish uchun birlamchi mahsulotlar eksporti;

3) Yoqilg'i-moylash mahsulotlari importi samaradorligi ko'rsatkichi:

$$YoMMS = YoMMXMimp / YoMMQIeksp$$

bunda, YoMMS - Yoqilg'i-moylash mahsulotlari importi samaradorligi ko'rsatkichi;

YoMMXMimp - Yoqilg'i-moylash mahsulotlari mahsulotlar homashyosi importi;

YoMMQIeksp - Qayta ishlangan yoqilg'i-moylash mahsulotlari eksporti;

4) Asosiy vositalar (transport vositalaridan tashqari) va ular uchun butlovchi qismlar va moslamalar importi samaradorligi ko'rsatkichi:

$$AVS = AVimp / JAMImp$$

bunda, AVVS - Asosiy vositalar (transport vositalaridan tashqari) va ular uchun butlovchi qismlar va moslamalar importi samaradorligi ko'rsatkichi;

AVimp - Asosiy vositalar (transport vositalaridan tashqari) va ular uchun butlovchi qismlar va moslamalar importi;

JAMImp – Jami import hajmi.

Tashqi savdoni KQITga ajratilgan tovarlar eksportini quyidagi 2-jadval ma'lumotlari asosida qiyosiy tahlil qilindi:

2-jadval.

KQIT toifalari bo'yicha import samaradorligi tahlili²

Kodi	KQIT toifalar nomi	2005	2010	2015	2020	2021
	Jami import:	4 091,30	9 175,80	12 416,60	21 171,50	25 507,70
	Jami eksport	5 408,80	13 023,39	12 507,62	15 102,28	16 662,80
	Import/eksport	75,64	70,46	99,27	140,19	153,08
100	Oziq-ovqat* IMP	272,7	876,6	1 435,70	1 964,50	2 742,10
100	Oziq-ovqat* EKS	184,7	1 224,30	1 288,10	1 374,40	1 655,60
110	Homashyo IMP	37,8	108,4	367,7	791,3	1 004,70
120	Qayta ishlangan EKS	73,6	66,3	66,2	355,9	399,3
	Foydalilik darajasi	51,3	163,4	555	222,4	251,6
	Oziq-ovqat* bo'yicha:					
	IMP/EKS*100	147,7	71,6	111,5	142,9	165,6
200	Ich birlamchi mahsulot** IMP	1 060,50	2 708,70	3 347,60	6 330,90	750,3
200	Ich birlamchi mahsulot** EKS	3 449,90	6 669,30	5 126,00	9 899,20	10 168,10
210	Homashyo IMP	111,5	339,5	180,9	473,4	750,3

² O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif hisob kitoblari

220	Qayta ishlangan EKS	2 351,70	4 958,10	4 306,60	9 519,70	9 759,70
	Foydalilik darajasi	4,7	6,8	4,2	5	7,7
	Ich birlamchi mahsulot** bo'yicha	30,7	40,6	65,3	64	7,4
	IMP/EKS*100					
300	Yoqilg'i*** IMP	102,9	627,6	725,6	1 052,30	1 452,90
300	Yoqilg'i*** EKS	619,2	2 962,90	2 677,20	654,4	952,8
310	Homashyo IMP	83,1	276,7	158,1	347	503,3
320	Qayta ishlangan EKS	135,7	437,6	127,8	196,4	210,9
	Foydalilik darajasi	61,2	63,2	123,8	176,7	238,7
400	Asosiy vositalar**** IMP	964,7	2 354,60	3 249,20	6 430,30	6 188,80
400	Asosiy vositalar**** EKS	26,3	100,3	35,6	91,6	100,4
	IMP/EKS*100	3 674,80	2 348,70	9 129,30	7 019,30	6 167,10
	AV imp/Jami IMP*100	23,6	25,7	26,2	30,4	24,3

*Oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar

**Birlamchi toifalarga kiritilmagan ishlab chiqarish uchun birlamchi mahsulotlar

*** Yoqilg'i-moylash mahsulotlari

**** Asosiy vositalar (transport vositalaridan tashqari) va ular uchun butlovchi qismlar va moslamalar

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan 2005 yilda asosiy vositalar importi jami importning 23,6 %ini tashkil qilganligini ko'rishimiz mumkin. Ushbu ko'rsatkich 2020 yilgacha bo'lgan davrda o'sib kelgan bo'lsada, jami import hajmi yuqoriroq ko'rsatkichga ega bo'lganligi sababli 2021 yilda pasayish tendenyasiga ega bo'lgan. 2010 yilda Oziq ovqatlar va ichimliklar importi eksportining 147 %ini, 2021 yilda esa 165 %ini tashkil qilganligini ko'rishimiz mumkin. Bunga qo'shimcha sifatida tumanlar kesimida QKITga ajratilgan mahsulotlar eksporti haqida ma'lumotlar ko'lamini kengayishi hududlarni kompleks rivojlantirishda hukumatimiz tomonidan operativ va strategik qarorlar qabul qilinishida va ijobiy o'zgarishlarda ahamiyati beqiyos bo'lishiga ishonamiz. Buning natijasida hududlarni tashqi savdo jarayonlarida yanada samarali ishtiroki ta'minlanar edi.

Ushbu jadval ma'lumotlaridan, import hajmini ortishi eksport va boshqa makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga qay daradajada ta'sir qilishini tahlil qilishimiz imkonini beradi. Bu orqali homashyo va asbob uskunalar importi hajmini ortishi hisobiga iqtisodiyotda o'zgarishlar qanday bo'layotganligini, tayyor mahsulotlar importi kamayishiga ta'sirini ko'rishimiz mumkin bo'ladi.

Xulosa va takliflar

Yuqorida biz tahlil qilgan jadval ma'lumotlariga qo'shimcha sifatida tumanlar kesimida QKITga ajratilgan mahsulotlar eksporti haqida ma'lumotlar ko'lamini kengayishi hududlarni kompleks rivojlantirishda hukumatimiz tomonidan operativ va strategik qarorlar qabul qilinishida va ijobiy o'zgarishlarda ahamiyati beqiyos bo'lishiga ishonamiz. Buning natijasida hududlarni tashqi savdo jarayonlarida yanada samarali ishtiroki ta'minlanar edi.

Shu bilan birga, importni KQITlar tarkibi bo'yicha qiyosiy tahlillar o'tkazish mamlakatimizning kelgusida import o'rnini bosuvchi tovarlar ishlab chiqarish va mahalliyashtirish ishlarini yanada jadallashuviga ijobiy ta'sir qilgan bo'ladi.

Ayrim iqtisodchilar tomonidan eksportni rivojlantirish va importni cheklash tashqi savdo orqali iqtisodiy rivojlanishning asosiy mezonini qilib ko'rsatilsada, importning iqtisodiyotda ahamiyati yuqori ekanligini rad etib bo'lmaydi. Birinchidan, importni hamma mamlakat amalga oshirishi tabiiy, chunki, barcha mamlakatlar eksport qilishi mantiqqa to'g'ri kelmaydi. Bir mamlakatning eksporti boshqa bir mamlakatga import bo'ladi. Ikkinchidan, samarali importni amalga oshirish iqtisodiyotni ravnaqini barqarorlashtiradi. Import orqali yuqori eksport salohiyatiga ega bo'lgan davlat sifatida Yaponiyani misol qilishimiz mumkin. Shu sababli importni chuqur o'rganib, uni optimallashtirish iqtisodiyotni barqaror o'sishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.M. Mirziyoevning 2020 yil 21 yanvardari O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi so'zlagan nutqidan.
2. Marko Mantovanelli. Jahon bankining O'zbekistondagi vakolatxonasi rahbari. <https://www.gazeta.uz/>
3. 2020-2025 yillarda O'zbekiston Respublikasida statistikasi rivojlantirishning milliy strategiyasi.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining Milliy statistika tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4796-sonli qarori
5. Гаджиев Ю.А. Зарубежные теории регионального экономического роста и развития // Экономика региона. 2009. № 2. С.45-62.
6. Е.Г.Гужва, М.И.Лесная, А.В.Кондратьев, А.Н.Егоров; СПбГАСУ –СПб., 2009.–116 с.
7. Оболенский В.П. Нарращивание российского несырьевого экспорта: возможные риски // Российский внешнеэкономический вестник. 2018. № 9. С.22-32.
8. А.А. Новикова. Новые международные статистические группировки для изучения товарных связей регионов. Российский внешнеэкономический вестник. 52-стр. 3 – 2020.
9. <https://www.ecb.europa.eu> -Yevropa Markaziy banki rasmiy sayti.
10. <https://unstats.un.org> BMT Statistika bo'limi
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 03.11.2017 yildagi PF-5215-sonli "Maxsus turdagi tovarlar eksporti va importini litsenziyalash, shuningdek eksport kontraktlarini ro'yxatga olish va import kontraktlarini ekspertizadan o'tkazishni tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni.

12. Statistika sohasida qo'llanilayotgan statistik tasniflagichlardan foydalanish bo'yicha qo'llanma. www.stat.uz
13. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining 18.01.2019 yil 1-son qaroriga Ilova. "Tovarlar tashqi savdo statistikasi hisobini tashkil etish uslubiy qo'llanmasi".
14. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasida tashqi savdo operatsiyalari monitoringini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 3 noyabrdagi PF-5215-sonli "Maxsus turdagi tovarlar eksporti va importini lisenziyalash, shuningdek, eksport kontraktlarini ro'yxatga olish va import kontraktlarini ekspertizadan o'tkazishni tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Famoni.
15. O'zbekiston Respublikasining "Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonuni. <https://lex.uz/docs/5569619>
16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi Farmoni. PF-60-son, 28.01.2022 yil—O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2022 y.
17. "Statistika sohasida qo'llanilayotgan statistik tasniflagichlardan foydalanish bo'yicha qo'llanma". www.stat.uz rasmiy sayti.